Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar.....	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellash asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	



PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA BUXGALTERIYA HISOBOTLARINI YURITISHNING MUHIM JIHATLARI

Madartov Bahrom Quvondiqovich

TDAU professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobini yuritishning amaliy ahamiyati, moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish va resurslardan oqilona foydalanish masalalari yoritiladi. Xususan, moliyaviy hisobotlarning aniqligini oshirishda raqamlashtirish va avtomatlashtirish texnologiyalarining roli tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish orqali klasterlar faoliyatining ochiqligi va iqtisodiy samaradorligini ta'minlash imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Shuningdek, hisob-kitob tizimida uchraydigan muammolar ham tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: paxta-to'qimachilik klasterlari, buxgalteriya hisobi, raqamlashtirish, avtomatlashtirish, moliyaviy boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: This article explores the practical significance of maintaining accounting systems in cotton-textile clusters, emphasizing the efficient management of financial flows and rational use of resources. It highlights the role of digitalization and automation in enhancing the accuracy and transparency of financial reporting. The study discusses how the implementation of modern information systems can increase the economic efficiency and governance of cluster operations. Additionally, it identifies existing challenges within the financial accounting process and proposes practical measures to address them.

Key words: cotton-textile clusters, accounting, digitalization, automation, financial management, economic efficiency.

Аннотация: В статье рассматривается практическое значение ведения бухгалтерского учёта в хлопково-текстильных кластерах, вопросы эффективного управления финансовыми потоками и рационального использования ресурсов. Особое внимание уделяется роли цифровизации и автоматизации в повышении точности финансовой отчётности. Автор анализирует возможности обеспечения прозрачности и экономической эффективности деятельности кластеров посредством внедрения современных информационных систем. Также выделены актуальные проблемы в системе расчётов и предложены практические рекомендации по их решению.

Ключевые слова: хлопково-текстильные кластеры, бухгалтерский учёт, цифровизация, автоматизация, финансовое управление, экономическая эффективность.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida agrosanoat majmuasini chuqur isloh qilish va tarmoqlararo integratsiyani kengaytirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida, paxta-to'qimachilik sohasida yangi ishlab chiqarish zanjirlari shakllandi. Mazkur islohotlar oqibatida sohaga faqat xomashyo yetishtiruvchi sifatida emas, balki tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati keng yo'lga qo'yildi. Bu klasterlar ishlab chiqarish, qayta ishlash va mahsulotni bozorga chiqarishning barcha bosqichlarini yagona tizim asosida birlashtirgan holda, yuqori darajadagi iqtisodiy samaradorlik, xarajatlarni optimallashtirish va eksport salohiyatini oshirish imkonini bermoqda.

Zamonaviy klaster modelining muhim jihatlardan biri shundaki, unda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bilan bog'liq barcha iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi moliyaviy munosabatlar aniq va samarali tashkil etilishi zarur. Ayniqsa, buxgalteriya hisobi, o'zaro hisob-kitob tizimi, davlat budjetiga to'lanadigan majburiy to'lovlar, soliq hisobotlari, o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar tahlili hamda daromadlar taqsimoti kabi moliyaviy jarayonlar klasterning iqtisodiy natijalarini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.

Shu bois, paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya-moliyaviy hisobotlar tizimini mukammal yo'lga qo'yish zarurati dolzarb masalaga aylangan. Bu nafaqat ichki moliyaviy intizomni mustahkamlash, balki xorijiy investorlar va davlat nazorat organlari uchun ishonchli monitoring mexanizmini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda klasterlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda moliyaviy axborot tizimlarining ochiqligi, avtomatlashtirish darajasi va hisob-kitoblarning aniqligi ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini iqtisodiy va moliyaviy jihatdan tahlil qilish so'nggi yillarda ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibida agrar-sanoat sohalari integratsiyasining kuchaytirilishi, ayniqsa, klaster tamoyili asosida tashkil etilgan tuzilmalar doirasida buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarning o'rni tobora ortib bormoqda.

Mansurov S. paxta-to'qimachilik klasterlarining bugungi kundagi holatini tahlil qilish bilan birga, ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda moliyaviy boshqaruv tizimining shaffofligi va hisob-kitoblarda avtomatlashtirishning roli muhim ekanini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, klasterlarda hisob-kitob jarayonlarini raqamlashtirish, bir tomondan, xarajatlarni kamaytirs, boshqa tomondan, investorlar uchun ishonchli ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarining huquqiy-me'yoriy asoslari va ularni moliyalashtirish tizimi ham bir qancha tahlillarda o'rganilgan. Jumladan, O'zbekiston To'qimachilik va Tikuv-trikotaj sanoati uyushmasining rasmiy saytida klasterlarni boshqarish mexanizmlari, hisob-kitobda uchraydigan muammolar va ularni hal qilish yo'llari yoritilgan. Sayt tahliliga ko'ra, hisob tizimini yagona elektron platformaga o'tkazish orqali soliq va moliyaviy intizomning yuqori darajada ta'minlanishi mumkin.

"Xabar.uz" axborot portalida e'lon qilingan maqolalarda esa, klasterlarda buxgalteriya hisobotlari yuritilishida uchraydigan asosiy muammolar, jumladan, hisobning kechikishi, soliq normativlarini to'g'ri qo'llamaslik, va inson omilining ta'siri tahlil etiladi. Mualliflar zamonaviy ERP tizimlaridan – xususan, 1C: Buxgalteriya, SAP va Microsoft Dynamics kabi dasturlardan foydalanish samaradorlikni sezilarli darajada oshirishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham sanoat klasterlarida moliyaviy boshqaruv tizimlarining integratsiyasi, buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilishi, va moliyaviy monitoring mexanizmlarining takomillashtirilishi global tajriba nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. Xususan, UNIDO va FAO kabi tashkilotlarning sanoat klasterlari bo'yicha tavsiyalarida klasterdagi har bir subyektning alohida hisob yuritishi, lekin ularning umumiy tizimga birlashtirilishi zarurligi alohida urg'u bilan ko'rsatiladi.

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlili paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobining shaffofligi, avtomatlashtirilishi va real vaqt rejimida yuritilishi klasterning umumiy iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri ekanini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda asosiy e'tibor paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritish amaliyotini o'rganishga qaratildi. Ma'lumotlar ochiq manbalar (sohaviy nashrlar, rasmiy veb-saytlar, tahliliy maqolalar) asosida yig'ildi. Tahlil usuli sifatida taqqoslash, kontent tahlili va amaliy kuzatuv yondashuvlari qo'llanildi, muammolar va samaradorlik omillari aniqlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Paxta-to'qimachilik klasterlari va ularda yuritiladigan moliyaviy hisobotlar tizimi – bu agrar va sanoat tarmoqlarini o'zaro uyg'unlashtiruvchi, yuqori darajadagi qo'shilgan qiymat zanjirini ta'minlovchi o'ziga xos biznes tuzilmalardir. Ular o'z tarkibiga fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari (paxta tozalash, ip-kalava ishlab chiqarish), to'qimachilik va trikotaj fabrikalari hamda logistika xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarni birlashtiradi. Klaster modelining asosiy ustunligi shundaki, u paxta xomashyosini bir butun tizim doirasida samarali qayta ishlashga va tayyor mahsulot sifatida ichki hamda tashqi bozorlarga chiqarishga imkon beradi.

Bunday zanjirli biznes modelda moliyaviy hisobotlarni to'g'ri yuritish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- Xomashyoni baholash va hisobga olish – fermerlar tomonidan yetkazib beriladigan paxta xomashyosini qabul qilish, uning hajmi va sifatini aniqlash, nav bo'yicha baholash, shuningdek, belgilangan tartibda moliyaviy qiymat belgilash va hisobot tizimida qayd etish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

- Mehnat va xizmatlar uchun to'lovlarni aniqlash – klaster ishtirokchilari, xususan fermerlar, texnik xizmat ko'rsatuvchilar, tashuvchilar va boshqa xizmat ko'rsatuvchilarga to'lovlarni aniq hisoblash, belgilangan shartnomalar asosida haq to'lash mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

- Soliq va bojxona hisob-kitoblari – klasterlar o'zlarida qayta ishlangan mahsulotlar uchun taqdim etilgan soliq imtiyozlarini va eksport uchun bojxona hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirishi, shuningdek davlat byudjetiga to'lanadigan majburiy to'lovlar hamda qo'shilgan qiymat solig'ini o'z vaqtida to'lab borishi zarur.

- Ichki moliyaviy hisobotlar va auditorlik – klaster tizimida faoliyat yuritayotgan har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyat turidan kelib chiqib, alohida moliyaviy hisobotlar tayyorlab borsa-da, klasterlar yillik



hisobotlarida umumiy konsolidatsiyalashgan shaklda hisobot taqdim etadi. Bu hisobotlar ichki nazorat, xarajatlarni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

– Sotuvdan tushgan daromadlarni taqsimlash – klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sotuvdan tushgan tushum asosida, tizimda faoliyat yurituvchi barcha xo'jalik subyektlari (fermer xo'jaliklari, xizmat ko'rsatuvchilar, logistika korxonalari) o'rtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq taqsimlanadi. Bu jarayonning shaffofligi va raqamlashtirilishi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash vaqtini qisqartiradi hamda klaster va hamkor tashkilotlar o'rtasidagi ishonchlikni oshiradi.

Moliyaviy hisobotlar yuritilishini avtomatlashtirish. Paxta-to'qimachilik klasterlari kabi murakkab tuzilmalar uchun buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarni samarali tashkil etishda tizimni raqamlashtirish va avtomatlashtirish muhim ahamiyatga ega. Aniq va qisqa vaqt oralig'ida hisobotlarni tayyorlash tizimi klaster faoliyatini optimal boshqarish, moliyaviy jarayonlarda inson omilini kamaytirish orqali nafaqat ishonchli hisobotlarga ega bo'lish, balki hisob yuritish xarajatlarni ham kamaytirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda xalqaro amaliyotda 1C: Buxgalteriya, SAP ERP, Oracle Financials, Microsoft Dynamics kabi yuqori texnologik dasturiy ta'minotlar keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda ham bu kabi axborot tizimlarini paxta-to'qimachilik klasterlariga joriy etish orqali quyidagi vazifalar samarali hal etilmoqda:

– Elektron hisob-fakturalarni yuritish – tovar va xizmatlar harakati bo'yicha avtomatik ravishda elektron hisob-fakturalar shakllantiriladi, bu esa soliq organlari va tijorat hamkorlari bilan hisob-kitoblarni tezlashtiradi va aniqlikni ta'minlaydi.

– Avtomatik soliq hisobotini tayyorlash – klasterning barcha bo'g'inlarida soliqqa oid ma'lumotlar avtomatik tarzda shakllanadi va tegishli davlat organlariga uzatiladi. Bu inson omili va xato ehtimolini kamaytiradi.

– Moliyaviy tahlil va prognoz qilish – avtomatlashtirilgan tizimlar orqali daromad va xarajatlar, aylanma mablag'lar, investitsiya faoliyati va rentabellik darajasi yuzasidan dinamik tahlillar va moliyaviy prognozlar tuziladi.

– Ishlab chiqarish bosqichlarida xarajatlarni nazorat qilish – har bir ishlab chiqarish bo'g'inida moddiy va moliyaviy xarajatlar avtomatik hisobga olinadi, bu esa real vaqt rejimida nazorat qilish va samaradorlikni baholash imkonini beradi.

Avtomatlashtirish jarayonlari klaster ishini markazlashgan boshqaruv tizimiga o'tkazish, barcha ma'lumotlarni yagona axborot maydoniga jamlash va biznes qarorlarini asosli qabul qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish nafaqat vaqt va resurs tejimini ta'minlaydi, balki raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotlarni yuritishda yuzaga kelayotgan muammolar. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatida moliyaviy hisobotlarning samarali tashkil etilishi umumiy iqtisodiy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Biroq amaliyotda bu sohada quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

– Tizimli hisobotlarning yetarli emasligi – klaster tuzilmalarida yuritilayotgan hisobot shakllari talabga javob bermaydi yoki noto'liq shakllantiriladi. Bu holat umumiy tahlil va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini qiyinlashtiradi.

– Moliyaviy ma'lumotlarning kechikishi – hisob va ma'lumot almashinuvi an'anaviy yoki eskicha shaklda yuritilishi sababli, axborot vaqtida yetkazilmaydi, bu esa ularni bir tizimga keltirishda ortiqcha vaqt va mehnat talab qiladi. Natijada resurslar noo'rin taqsimlanadi va moliyaviy intizom buziladi.

– Soliq va huquqiy normalarni to'g'ri qo'llamaslik – ba'zan soliq qonunchiligi va buxgalteriya standartlari noto'g'ri tushunilishi hisob-kitoblarda xatolarga olib keladi, bu esa moliyaviy ko'rsatkichlarning noto'g'ri shakllanishi va javobgarlik xavfini tug'diradi.

– Ishchi kuchi va xizmatlarni baholashda subyektivlik – mehnat haqi va xizmatlarning haqiqiy qiymatini aniqlashda yagona mezon va baholash usullari yo'qligi natijasida obyektivlik ta'minlanmaydi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Moliyaviy hisobotlarni yuritish jarayonlarini raqamlashtirish orqali ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini yaratish.

Ichki audit tizimini kuchaytirish va raqamli texnologiyalarga asoslangan doimiy moliyaviy monitoring tizimini shakllantirish.

Kasbiy malakali buxgalterlar va moliya mutaxassislarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratish.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayoniga xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini bosqichma-bosqich tatbiq etish.



1-jadval. Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritish: muammolar, yechimlar va istiqbollar.

Tahlil yo'nalishi	Asosiy tavsif
Moliyaviy hisobotlarni yuritishning asosiy bosqichlari	Xomashyo bahosi, xizmat haqlari, soliqlar, ichki auditorlik va daromad taqsimoti
Avtomatlashtirish imkoniyatlari	Elektron fakturalar, soliq hisobotlari, xarajat nazorati, moliyaviy prognozlar
Amaldagi muammolar	Hisobotlarning yetarli emasligi, kechikishlar, noto'g'ri yondashuvlar, subyektivlik
Tavsiya etilayotgan yechimlar	Hisob-kitoblarni raqamlashtirish, ichki auditni kuchaytirish, malakali kadrlar tayyorlash
Kutilayotgan istiqbolli natijalar	Shaffoflik oshadi, xarajatlarni kamayadi, investorlar ishonchi ortadi, klaster raqobatbardoshligi kuchayadi

Shu asosda, paxta-to'qimachilik klasterlarida hisob-kitob tizimini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ularning shaffof va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Paxta-to'qimachilik klasterlarida hisob-kitob ishlarini samarali tashkil etish orqali quyidagi muhim natijalarga erishish mumkin:

– Moliyaviy hisobotlarning ochiqqligini ta'minlash – aniq va to'liq hisobotlar tizimi orqali klaster ishtirokchilarining ishonchini mustahkamlash, istiqbolda klaster bilan hamkorlik qiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar sonini oshirish, har bir biznes jarayoni va moliyaviy oqimni monitoring qilish imkoniyatini yaratadi.

– Soliq va xarajatlarni optimallashtirish – hisob-kitoblarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali soliq va moliyaviy xarajatlarni tizimli tarzda optimallashtiriladi, bu esa klasterning umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

– Investorlar uchun ishonchli ma'lumotlar bazasini shakllantirish – aniq va barqaror moliyaviy ma'lumotlar asosida investorlar uchun ishonchli axborot taqdim etiladi hamda ularning qarorlarini asoslash imkoniyati yaratiladi.

– Qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarining ortishi – samarali hisob-kitob tizimlari, xarajatlarni nazorat qilish va rentabellik tahlillari orqali klasterning umumiy qiymati va raqobatbardoshligi oshadi.

Shu bois, kelgusi rivojlanish yo'nalishlarida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish – raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish, ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash va monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Malakali mutaxassislarni jalb etish – klasterlarda buxgalteriya va moliya sohasida yuqori malakaga ega mutaxassislarni jalb qilish va ularning doimiy kasbiy rivojlanishini ta'minlash kerak.

Raqamli moliyaviy boshqaruv usullarini keng joriy etish – zamonaviy axborot texnologiyalari va ERP tizimlaridan foydalanish orqali moliyaviy hisobotlarning aniqligi va samaradorligini oshirish lozim.

Ushbu tadbirlar paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatining barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha qiymat yaratishga xizmat qiladi. Zamon talablari asosida harakat qilish esa har doim barcha sohalarida yutuq va natijalarning kafolati bo'lib kelgan. Ya'ni, klasterlar boqimandalikdan voz kechib, erkin va samarali mehnat qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mansurov, S. (2022). Paxta-to'qimachilik klasterlarining bugungi kundagi tahlili va rivojlanish istiqbollari. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(3), 281–285. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a540
2. <https://uzts.uz/paxta-toqimachilik-klasterlari/>
3. <https://www.xabar.uz/iqtisodiyot/paxta-toqimachilik-klasterlari-moliyaviy-so>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>